



## KO'P TILLILIK MUHITIDA TARBIYALANAYOTGAN YOKI BIR NECHA TIL O'RGANISHGA QARATILGAN TARBIYANING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI.

**Maxmudova Nazokat Latifovna**

*Farg'ona Davlat Universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2-kurs magistranti*

*Ilmiy rahbar: Abduvaliyeva Nodiraxon.*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda oilalarda bolalarning komil inson bo'lishlariga qaratilgan va pedagoglar maslahatisiz kelib chiqqan tarbiya mahsulining bola nutqiga bo'lgan ijobiy va salbiy jihatlari hususida.

**Kalit so'zlar:** ko'ptillilik, bilingvizm, trilingvizm, oilaviy muhit, chet tili, boshlang'ich ta'lim.

Ko'p tillilik muhitida tarbiyalanayotgan yoki bir necha til o'rganishga qaratilgan tarbiyaning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

**Ikkitillilik(Bilingualism)**-bu ikki tildan foydalana olish va uni tushuna olish, dialektikasidan mukammal bilish qobiliyati. Bu ijtimoiy talab yoki biror sabab bilan yuzaga keladi. Uning tabiiy vujudga kelishida bir davlat hududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining jips yashashi ham sabab bo'ladi. Agar shaxs ikki va undan ortiq tildan foydalana olsa yoki tushuna olsa, u ko'p tilli shaxs hisoblanadi.

Jumladan, bilingvizmning ijobiy va salbiy jihatlari mavjud. Hozirgi kunda tadqiqotchilar bilingvizm va monolingvizm ustida ochilmagan masalalar ko'pligi uchun bir qancha ishlar olib borishmoqda. Psixologlarning fikricha, bilingvizm-dixotomiya emas: hech kim monolingv yoki bilingv bo'lolmaydi. Kuzatishlar natijasida bilingvizm ikki yondashuvga asoslanib, "hayoti davomida doimiy ravishda ikki tilda ravon so'zlashadigan insonlar" sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi yondashuvda esa, bilingvizm-kontinuum. Til ma'lum ijtimoiy muhit ta'sirida kelib chiqishi ham sir emas. Bolalarning til bilish salohiyatining shakllanishi, oilada va ko'chada kim bilan qaysi tilda ko'proq so'zlashishlariga ham bog'liq.

To'liq kasb etmagan tadqiqotlarga ko'ra, bilingv bolalar monolingv bolalar bilan taqqoslaganda salbiy sharoitda bo'lgan, -degan farazlar bor. Ular maktabda yomon o'qigan, testlarni past bahoda topshirgan va hokozi. Tadqiqotlar xulosalaridan kelib chiqadigan bo'lsak, bilingvizm aqliy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi va bolani tillar muloqotida chalkashtiradi.

Men bu fikrga qisman qo'shilaman. Shaxsiy tajribamga asoslanib, bilingvizm bolalar ham yaxshi ko'rsatkichlarga ega bo'lishi mumkin. Aynan tojik-o'zbek tilida so'zlashadigan bolalar ustida fikr yuritadigan bo'lsam, ular ham kichik yoshdan (uyda tojik tilida gaplashadigan bolalar misolida) o'zbek tilini yaxshi o'zlashtira olishgan. Lekin uyda ham o'zbekcha gaplashish kerak. Masala bunday bo'lmagan hollarda, bola ehtimolli vaziyatlarga duch kelishi kuzatilgan.



Oxirgi paytdagi tadqiqotlar bir necha til bilish insonning qator qabul qilish, vazifalar o`rtasida o`tish, e`tiborni jamlash kabi fazilatlarini rivojlantirishga olib kelishini tasdiqlab berdi.

Bilingvist bolalarning miyasi bir necha sezilarli afzalliklarga ega bo`ladi. Ba`zilarini xattoki ko`rish mumkin: kulrang moddaning ko`proq zichlikka ega bo`lishi hisoblanadi. Bundan tashqari ikki tilni ishlatganda miyaning ba`zi bir qismlarining faollashishini ko`rish kuzatiladi. Buni sodda qilib aytganda, miyani charxlash deymiz.

Bilingv bolalar ikki tilda oilada va ko`chada so`zlashuv muhitida bo`lgani uchun ham har ikkala tilda bemalol, ravon so`zlash oladi. Biroq, ular monoling bolalarga qaraganda har ikki tilda ham kamroq so`z boyligiga ega bo`ladilar. Buni kamchilik deb ololmaymiz, ular har ikki tilni ham baravar o`rganadilar.

Logopedlarning fikricha, endigina gaprishga o`rganayotgan bolaga dastlab muqobil bir til o`rgatilmasdan, ikki tilda gapirilsa, bola nutqi sekin va nuqsonli shakllanar ekan. Bu ham amalda tasdiqlangan faktlardan biri hisoblanadi.

Savodxonlik borasida bilingvlar ancha qiynalishadi. Ikkala tilni savodli o`rganish uchun ikki til yozuvi bir xil tizimli bo`lishi kerak. Agar farqlansa, bola salohiyatiga tayanish o`rinli.

Muammoli vaziyatlar duch kelganida bilingvlar monolingvlarga qaraganda tashabbuskorroq bo`lishadi. Vaziyatlarni oson hal qilishadi.

Bilingvizm tilni murakkablashtiradi. Ular doim ikki tildan birini tanlashi kerak bo`ladi. Bu miya programmasini doimo o`zgartirishni talab etadi. Natija shuki, miyada qarish jarayoni sekinlashadi. Ijobiy ravishda bilim olish qobiliyatini ham yuksaltiradi.

Trilingvizm va multilingvizm nima? Trilingvizm-uch, multilingvizm-undan ham ko`p til bilish qobiliyatiga ega shaxslar.

U ko`p tilni bilishning ijobiy tomonlari bilan birga, salbiy tomonlari ham bor ekan. Katta yoshlilarda ko`p til bilsa, shuncha aqldan ozishdan himoyalalmaganligi tajribalarda aks etgan.

Fikrimcha, inson o`z ehtiyojlaridan kelib chiqib, ma`lum tilni o`zlashtirishi, shu tilni mukammal egallay olishi yomon natija emas.

Ma`lumki, qaysi til ma`noni qisqa yo`l bilan ifodalay olsa, shu til rivojlangan til ekanini shoir zaruriy misollar bilan ko`rsatib beradi.

Yuqoridagi fikrlardan ko`rinib turibdiki, aynan o`zbek va tojik tilida so`zlashadigan bolalarning unli harflarda harf almashinuviga sabab ham unli tovushlarning mutloqligi ham sabab bo`lishi mumkin.

Ikki tilda ijod qiladigan adiblar hozir ham uchraydi. Jumladan, Chingiz Aytmatov qirg`iz va rus tillarida erkin ijod qiladigan yozuvchidir.

Umuman ikki tillilik ijtimoiy hodisa sifatida tillarning boyishi, rivojlanishi umumbashariy madaniy saviyaning oshishiga muhim ta`sir etuvchi omildir. Tillarning bir-biriga har qanday ta`sir ko`rsatishi bilingvist odamlar bo`lishini talab etadi.

Ikki millatli, aralash oilalarda va ular ota-onalarining tilidan tashqari boshqa mamlakatlarda yashash tarzida ham ko`p tilli bolalar shakllanadi. O`zlarining hayotlari



mobyaynida 30 tagacha turli tillarni o'zlashtirgan odamlar bor, ularning ba'zilari tarqoq va nemis, mandalin yoki tay tillari kabi turli xil millat vakillari singarilar.

Ko'p tillarning bilishning afzal va kamchilik jihatlari hususida fikr bildirishda albatta tajribalarga asoslanamiz. Vashingtondagi(5internet-google)Jorjtaun universiteti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, turli tillarni bilish va ulardan foydalanish miyaning ayrim sohalarining rivojlanishi -diqqatva qisqa muddatli xotira kabi boshqa bilim qobiliyatlarini yaxshilashga hissa qo'shadi.

Garchi bu bizga sezilmasa ham barchamiz tillarni bolaligimizdan o'rganamiz. Tilni o'rganish va undan foydalanish murakkab kognitiv protses hisoblanadi.Tilni egallashda turli xil bilim jarayonlari aralashadi: deklarativ xotiradan, jonli faoliyatni, so'z boyligini yoki grammatik me'yorlarni eslash uchun, protsessual xotiraga qadar, mushaklarning to'g'ri talaffuzi-talaffuz uchun dasturlashga mas'ul.

Shunday qilib bir nechta tillarda o'sish, chet tillarni o'rganishning eng oson va tezkor usuli bo'ladi. Bu ona tilidan tashqari chet tili deb hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, agar ispaniyalik ota-onasi bo'lgan qiz Germaniyada yashasa, uning ona tili ispan tilida bo'ladi va u tabiiy ravishda shu tilni egallash bilan birga parallel ravishda nemis tilini ham egallaydi, aksincha emas.

Agar ota-onangizdan biri siz bilan, masalan, bask tilida gaplashsa, bu ham sizning ona tilingiz bo'ladi.

Ko'p tillarni bilish albatta afzal va maqtoovga arzigulik bo'lishi bilan bir qatorda, kamchiliklardan ham holi emas.

Kamchiliklarni bartaraf etish darajasi katta-kichik bo'lib, tuzatish u qadar qiyin emas, lekin albatta vaqt talab etadi:

- **bolalarga qo'shimcha til o'rgatishni keyinroqqa qo'ying.** Ularning tillari ona tillarida barqaror bo'lgachgina o'rgatila boshlashi nutqiy kamchiliklarning oldini birmuncha olgan hisoblanadi. Buning ilmiy asoslari bo'lmasada, ko'plab ota-onalar va mutaxassislarning kuzatishlariga ko'ra mono(bir) va biling(ikki) bolalar taqqoslanganda yagona tilli bolalar 3 oydan 6 oygacha, ba'zan undan ham ko'proq oraliqda nutq tafavvutiga ega bo'ladi.

- **til aralashmasi hodisasi.** Til o'rganayotgan bolalar o'zlari o'rganayotgan turli tillar o'rtasida so'z almashadilar. Bu vaqtinchalik hodisa bo'lib, amaliyot va nazorat orqali barqarorlikni ntiklash mumkin.

- **ota-onalar uchun qo'shimcha harakatlar.** Bir necha tillarda, jumladan, tuzatish zarur bo'lganda **o'qish va yozish qobiliyatlari**, bu ota-onalar uchun ko'proq harakat talab qiladi. "Beshikdan ko'ptillik" Anna Sole Menaning kitobida bu fikrlar yoritilib, hal qilish tadbirlari va o'z farzandlarida kuzatganlari bayon qilinadi.

Bolalakidan chet tillarini o'rganishda ko'plab madaniy xilma-xilliklarni bilish, ijtimoiy moslashuvchanlikni osonlashtiradi, shuningdek, o'z qadr-qimmati va o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi. Ko'p tilli bolalar ko'proq aqliy moslashuvchanlikka ega, ular ko'proq ijodkor bo'lishadi, ularning tanlagan diqqat darajasi va xotira qobiliyati yuqori bo'ladi.



Bola chet tilini o'rganishga qanchalik erta jalb qilingan bo'lsa, ularda yuqoridagi qobiliyatlar paydo bo'lish ehtimoli shunchalik katta bo'ladi. Uzoq yillik istiqbolda, bu albatta yaxshi ish variant hisoblanadi, boshqa madaniyatga kirishish imkoniyatini beradi.

Chet tilini bilish ruhiy salomatlikning afzalliklarini anglatadi, qaysidir ma'noda yuksalishlarga olib keladi, lekin masalaning ikkinchi tomoni bor. Bu yuqorida aytib o'tilgandek nutqiy kechikishli bolalar, "yopiq bola" larni vujudga keltirib qo'yishi amalda isbotlangan, va buning yechimi ma'lum vaqt talab etadi.

Bizning yurtimiz sharoitida hammamiz bilingvistlar xisoblanamiz. Chunki bizda o'zbek tili bilan birgalikda rus tili ham maktablarda ikkinchi til sifatida o'rgatib kelinadi. Endilikda ingliz tilini mukammal bilish ham zamon talabi darajasida.

Bu ijtimoiy talab yoki biror sabab bilan yuzaga keladi. Uning tabiiy vujudga kelishi uchun bir davlat hududida ikki va undan ortiq xalq vakillarining jips yashashi ham sabab bo'ladi.

Agar shaxs ikki va undan ortiq tildan foydalana olsa yoki tushuna olsa, u ko'p tilli shaxs hisoblanadi.

Jumladan, bilingvizmning ijobiy va salbiy jixatlari mavjud.

Hozirgi kunda tadqiqotchilarni bilingvizm va monolingvizm ustida ochilmagan masalalar ko'pligi uchun bir qancha ishlar olib borishmoqda.

Psixologlarning fikricha, bilingvizm dixotomiya emas: xech kim monoling yoki biling bo'la olmaydi.

Kuzatishlar natijasida bilingvizm ikki yondashuvga asoslanib, "hayoti davomida doimiy ravishda ikki tilda ravon so'zlashadigan insonlar" sifatida tavsiflanadi.

Ikkinchi yondashuvda esa, bilingvizm-kontinum.

Til ma'lum ijtimoiy muhit ta'sirida kelib chiqishi ham sir emas. Bolalarning til bilish salohiyatini shakllanishi, oilada va ko'chada kim bilan qaysi tilda ko'proq so'zlashishlariga ham bog'liq.

To'liq kasb etmagan tadqiqotlarga ko'ra, bilingv bolalar monolingv bolalar bilan taqqoslaganda salbiy sharoitda bo'lgan, -degan farazlar ham bor. Ular maktabda yomon o'qigan, testlarni yomon topshirgan va hokozo.

O'tgan asrning 60-yillariga qadar bilingvistlarga ijobiy qaralmagan, ya'nikim ular o'zlashtirishi yaxshi natija bermaydi deyilgan.

Oxirgi paytlarda tadqiqotlar bir necha til bilish insonning qator qabul qilish, vazifalar o'rtasida o'tish, e'tiborni jamlash kabi fazilatlarini rivojlantirishga olib kelishini tsdiqlab berdi.

Endilikda zamon talabi bilan ko'pchilik yoshlarda bir necha til o'rganishga qiziqishlar shakllandi. Buning natijasida bilingvistlar soni keskin ko'paydi va ularga nisbatan ijobiy-aksincha, iqtidor sohiblari sifatida qaralmoqda.

Lekin fanda shu narsa amaliy va nazariy tomondan tasdiqlanganki, bolag avval o'z ona tilisini sof holga gapirishga, yozishga o'rgatib, so'ng chet tillarida o'qitishga e'tibor qaratilsa, ana o'shanda nutqiy nuqsonlar ortishi keskin kamayib,



boshqa til o'rganish xohish-irodalariga ham shikast yetmaydi, -deb o'ylayman.

Shaxsiy tajribamdan shu ma'lumki, tojik tilida talaffuz qiladiga bolalarning aksariyati unli harflarga, jumladan "o" va "u" harfi disgrafiyasi va disleksiyasiga uchraydilar.

Masalan: o`rin-urin, o`rik-urik, o`sib-usib...kabi..

Buday nutqiy buzilishlar, aminmanki, ko`plab takrorlash va mustahkamlashlar natijasida to`g`ri, samarali natija beradi.

Boshlang`ich sinflar uchun mo`ljallangan o`qish kitobi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, ularda erkin hamda obrazli fikrlay olish, o`z fikrini og`zaki hamda yozma ravishda bayon qila olishga, jamiyat a`zolari bilan erkin muloqotda bo`lish ko`nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgandir.

Boshlang`ich sinflarda o`qish darslari o`z mohiyati, maqsadi, vazifalariga ko`ra ta`limda alohida o`rin tutadi. Jumladan, o`qish darslaridagi qayta hikoyalash, she`r yodlash malakalari ham nutqiy faoliyatga ijobiy ta`sir qiladi.

"Negaki, o`qish fanining zaminida savodxonlik va axloqiy-ta`limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta`limini o`qish ta`limisiz tasavvur qilib bo`lmaydi"-deyishadi<sup>113</sup>.

Bu o`z navbatida ikki tilli oilada kamol topayotga bola dunyoqarasiga kitob orqali yo`l toishning samarali usuli deyish mumkin.

Har bir sinflar uchun mo`ljallangan o`qish darsliklari o`zining puxtaligi, rang-barangligi, qiziqarli ekanligi hamda berilayotgan janrlarning xilma-xilligi bilan o`quvchilar diqqatini o`ziga jalb etadi. Ulardan o`quvchilar berilgan asar matning o`qish bilan bir qatorda bir qancha qiziqarli, ilmiy ma`lumotlarga ham ega bo`ladilar.

"Izohli lug`atlar o`qish darslarida tez-tez kerak bo`ladigan qo`llanmalardir. O`quvchilar bunday lug`atlardan barcha jumboqlarga javob topadi, istagan bir so`zlari haqida keng va atroflicha ma`lumot oladilar"-deyiladi<sup>114</sup>.

Va yana, nutqiy boyliklari oshib boradi. Oilada va maktabda bir tildan foydalanish o`quvchilarning so`z boyligini oshirish, ularni turli mavzular bilan tanishtirish va bu bilimlaridan foydalanish malakalarini shakllantirish muhim masala hisoblanadi.

Bu ko`nikmalarining eng muhimlaridan biri alifbo tartibini yaxshi bilishlikdir. Alifboni yoddan bilmagan o`quvchi lug`atdan foydalanib o`ziga kerak bo`ladigan so`zni topa olmaydi.

Shuning uchun ham boshlang`ich sinflardayoq o`quvchilarning alifbo tartibini yaxshi bilishlariga e`tibor qaratish va bunga erishish talab etiladi.

Bu nafaqat nutq nuqsonlarini olibgina qolmay, bola diqqatini jamlash, fikrini bayon eta olish ko`nikmasiga ham ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

<sup>113</sup> Qosimova K, Matjonov S, G`ulomova X, Yo`ldosheva Sh, Sariyev Sh. "Ona tili o`qitish metodikasi", T.: Nosir nashriyoti, 2009-yil, 67-bet

<sup>114</sup> [https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/tilshunoslik/lug`at\\_ustida\\_ishlash\\_metodikasi](https://arxiv.uz/ru/documents/referatlar/tilshunoslik/lug`at_ustida_ishlash_metodikasi).



Mana shu kabilarga erishish maqsadida boshlang'ich sinf o'qish darsliklari so'ngida izohli lug'atlar berilgan.

Bundan asosiy maqsad esa o'uvchilar o'zlariga tushunarsiz bo'lgan so'zlarning ma'nosini izlashlari davomida lug'at bilan ishlash, nutqiy nuqsonlarga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalariga ega bo'lishlaridir.

O'zbek tili leksikasi boshqa ko'plab tillardan so'z olish natijasida ham boyib boradi.

Tilimizdagi so'zlar orasida umumturkiy so'zlar bilan bir qatorda ko'plab fors-tojik tilidan, arab tilidan, rus hamda boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma so'zlar ham mavjuddir.

Shunday ekan, o'qish kitoblarida berilgan lug'atlarda berilgan so'zlarning ma'nodoshligi hamda izohiga qo'shimcha ravishda bu so'zlarning qaysi tildan o'zlashganligini ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Dunyoda boshqa tillardan so'z olmasdan faqat o'z ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta til yo'q.

Bundan o'zbek tili ham mustasno emas. "Faqat ma'lum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi o'z tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab bo'lmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir. Bobolarimiz

Alisher Navoiy, Mahmud Qoshg'ariy ham shunga da'vat etgan"-deyilgan manbaalarda<sup>115</sup>.

Jumladan, Navoiy bobomiz ham ikki tilda mohirona ijod qilgan shoirlar. Ular fors-tojik tilida ham "Muhokamat ul-lug'atayin" ham ushbu so'zga misol bo'la oladi.

1-4 sinf o'qish darsliklarida berilgan lug'atlar o'quvchilar nutqini boyitishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, lug'atlar bilan tanishgan o'quvchi nimani qayerdan izlash kerakligi haqida ham yetarli ma'umotlarga ega bo'ladi.

O'quvchilarga darslikdagi tushunilishi qiyin bo'lgan so'zni tushuntirishda, bu so'zni ularning iste'moliga ko'chirishda ana shu lug'atlarning o'rni beqiyos hisoblanadi.

Ushbu lug'atlarning qaysi tildan o'zlashganligini ham kiritib, jadval ko'rinishida o'quvchilar uchun yanada qiziqarli hamda tushunarli shaklda qayta ishlab, havola etiladi.

UNICEF ning O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda 1-sinf o'quvchilari uchun tayyorlangan, 2021-yilda nashr etilgan Azimova, K. Mavlonova, S. Quronov, Sh. Tursun hammuallifligidagi Ona tili va o'qish savodxonligi (1-qism) darsligining so'nggi 102-103 betlarida darslikda foydalanilgan ayrim so'zlarning lug'ati mavjuddir.

Ushbu lug'at o'quvchilar so'z boyligining ortishida, nutqining rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>115</sup> R. Sayfullayeva, B. mengliyev, G. Boqiyeva, M. Abuzalova. Hozirgi o'zbek adabiy tili, T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2006-yil, 89-bet.



-Parovoz, paroxod, avtobus, trolleybus, tramvay kabi soʻzlar talaffuzida bilingvist bolalarga qaraganda monolingvist bolalarning talaffuz malakasi kam.

Shu soʻzlarni qiynalib talaffuz qilishadi. Bu kabi misollarni juda koʻp keltirshimiz mumkin.

Soʻnggi xulosalarga keladigan boʻlsak, boshlangʻich sinfda ijodkor oʻqituvchi oʻz oʻquvchisining ikki tilda oʻsishini ham nazoratga olishi, imkoniyatlaridan ijobiy foydalanishi kerak. Bu bilan bola ruhiyatiga, gapirish faoliyatiga shikast berib qoʻymasligimiz joiz.

Hozirgi kunda til oʻrganishga boʻlgan talab judayam ortib bormoqda. Chet tillarini bilmaslik xolatiga, qoloq xolat,-deb qaralmoqda. Til bilgan, el biladi,-deb shunga aytishsa kerak.